VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-hilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2022- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	**6 827,7**	**116,0**	**100,0**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	345,8	123,3	5,1
Moliyaviy xizmatlar	1 132,9	124,6	16,6
Transport xizmati	1 168,3	109,7	17,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 064,8	108,3	15,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	172,7	121,3	2,5
Savdo xizmatlari	2 307,4	117,1	33,8
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	188,6	111,5	2,8
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	325,1	112,3	4,8
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	155,2	115,8	2,3
Ijara va prokat xizmatlari	137,5	120,7	2,0
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	194,4	110,6	2,8
Boshqa shaxsiy xizmatlar	437,9	107,1	6,4
Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	72,4	101,6	1,1
Boshqa turdagi xizmatlar	189,5	116,9	2,8

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,8 %), transport xizmatlari (17,1 %) moliyaviy xizmatlar (16,6 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,0 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,5 %) tashkil etgan.

2022- yil yanvar-iyun oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, *(% da)*



2022- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 6 827,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 117,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 33,8 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 109,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 17,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 124,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 16,6 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar 107,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 123,3 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 112,3 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi

(jami xajmga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi
(2022- yil yanvar-iyun, mlrd.so‘m)



Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2022- yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’ati Namangan shahrida 2 806,9 mlrd. so‘m (122,7 %) va Chust tumanida 463,8 mlrd. so‘m (116,9 %)ga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (4 221,5 ming so‘m), Mingbuloq tumanida (1 911,5 ming so‘m) va Namangan tumanida (1 896,0 ming so‘m) qayd etildi

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2022- yil yanvar-iyun)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo‘yicha jami	**6 827,7**	**116,0**	**100,0**	**2 318,3**	**113,5**
Namangan sh.	2 806,9	122,7	41,1	4 221,5	119,7
Mingbuloq	251,9	110,8	3,7	1 911,5	108,4
Kosonsoy	348,5	113,3	5,1	1 592,9	110,7
Namangan t.	350,4	112,1	5,1	1 896,0	109,5
Norin	298,8	109,9	4,4	1 758,8	107,8
Pop	419,5	107,1	6,1	1 841,6	105,1
To‘raqo‘rg‘on	438,7	111,3	6,4	1 867,5	108,6
Uychi	410,1	112,8	6,0	1 837,2	110,1
Uchqo‘rg‘on	322,9	111,2	4,7	1 805,8	109,0
Chortoq	372,4	112,6	5,4	1 800,2	110,5
Chust	463,8	116,9	7,0	1 682,9	114,6
Yangiqo‘rg‘on	343,8	110,4	5,0	1 509,3	108,0

2022- yil yanvar-iyun oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, *mlrd. so‘m*



Eng yuqori o‘sish sur‘atlari moliyaviy xizmatlar (124,6 %), aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar (123,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (121,1 %), ijara xizmatlari (120,7%), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o‘rinni avtomobil transportida ko‘rsatilgan xizmatlar (108,3 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy xajmining 6,8 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo‘yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2022- yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 78,3 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,2 % ga yetdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo‘yicha transport xizmatlari tarkibi, *% da*



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste’mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.